

## IJTIMOIIY TARMOQLARDA SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLAR XAVFSIZLIGI TA'MINLASHNING AHAMIYATI

**Abduraxmonova Ruxsora Sobir qizi**

Robert Walters Angliyani kompaniyasida

Xalqaro Hamkorlik bo'limida yetakchi mutaxassis

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash masalalari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur tezis mavzusi yuzasidan tegishli ilmiy va rasmiy adabiyotlardagi fikrlar umumlashtirilib, mavjud muammo yuzasidan taklif hamda tavsiyalar keltiriladi.*

***Kalit so'zlar:** Ijtimoiy tarmoq, internet, shaxsiy ma'lumotlar, qonunchilik.*

***Annotation.** This article will thoroughly analyze the issues of ensuring the security of information about the person in social networks. Also, on the topic of this thesis, opinions in the relevant scientific and official literature are summarized and suggestions and recommendations are presented on the existing problem.*

***Keywords:** Social Network, internet, personal data, legislation.*

Ijtimoiy tarmoqlar, internet orqali o'zaro aloqada bo'lgan insonlar tomonidan foydalaniluvchi platformalardir. Mazkur platformada ijtimoiy aloqalarni yo'lga qo'yishda yetakchi vosita bu ijtimoiy tarmoqlardir. *Ijtimoiy tarmoq* – (inglizcha, *social networking service* so'zidan) ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi internet tarmog'i, platforma, onlayn servis yoki veb-sayt<sup>7</sup> degan ma'noni anglatadi. Rus tadqiqotchisi **Demidova-Petrova Elizaveta** fikriga ko'ra "Internetning paydo bo'lishi, onlayn

<sup>7</sup> Adambayev.U.X. Ancient myths and legends. "International scientific research conference". BELARUS, MINSK.: 2022.-P.4 .  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=NB0o4eQAAAAJ&citation\\_for\\_view=NB0o4eQAAAAJ:qxL8FJ1GzNcC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=NB0o4eQAAAAJ&citation_for_view=NB0o4eQAAAAJ:qxL8FJ1GzNcC)

makon, yangi munosabatlarning dinamik tarqalishi va rivojlanishi, onlayn ijtimoiy tarmoqlarda muloqot, virtual hayot shakllanishiga olib keldi”<sup>8</sup>. Jurnalist Nargis Qosimova o‘zining **“Mediaekologiya: axboriy muhitning sofligi masalalari”**<sup>9</sup> maqolasida “hozirgi kunda internetdan foydalanuvchilar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar 96%ni tashkil etmoqda, shu o‘rinda ijtimoiy tarmoq tushunchasi: uning tarkibi faqatgina ishtirokchilardan va ular o‘rtasida muloqotni o‘rnatuvchi, ko‘p foydalanuvchili interaktiv veb saytlar asosida yaratilgan tarmoqdir” deya ta’kidlaydi. **“Yangi O‘zbekiston”** gazetasining shu yil 13-mart, 49-sonida Toshkent davlat yuridik universiteti o‘qituvchisi, “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiati **Nodiraxon Abdurahmonovanning “Shaxsga doir ma’lumotlar xavfsizligi ijtimoiy tarmoqlarda ham ta’minlanishi shart”** sarlavhali maqolasida “Qator izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, jinoyatchilar ijtimoiy tarmoqlarda ko‘proq vaqt o‘tkazmoqda. Chunki endi jinoyat, jumladan, o‘g‘rilik qilmoqchi bo‘lgan shaxs “o‘lja”si haqidagi barcha ma’lumotni ijtimoiy tarmoqlardan olishi mumkin. Boisi, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining ba’zilari ushbu dasturlarning o‘zida belgilab qo‘yilgan ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiluvchi sozlamalardan ham foydalanmaydi” deya, takidlaydi.

Xalqaro **“Internetlivestats.com”**<sup>10</sup> sayti tomondan 2023-yilda e’lon qilingan internetda xavfsizlikka oid statistik manbalarga ko‘ra, “Bugungi kunda eng ko‘p jinoyatlar ijtimoiy tarmoqlarda shaxsning ma’lumotlariga daxl qilish orqali sodir etilmoqda. Ushbu ko‘rsatkich raqamlarda 88,5% ni tashkil qiladi. Shunday ekan shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilishda milliy qonunchilikdagi ayrim hujjatlarni qaytadan ko‘rib chiqish lozim.

O‘zbekiston Respublikasida shaxsga oid ma’lumotlar himoyasi yuzasidan **“Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”**gi<sup>11</sup> qonun mavjud. U shaxsga oid

<sup>8</sup> Демидова-Петрова Е.В. Викторевна Социальные сети и их влияние на преступность несовершеннолетних в современной России. DOI 10.24412/2227-7315-2022-4-116-125 УДК 343.97

<sup>9</sup> Н.Қосимова. Медиаэкология: ахборий мухитнинг софлиги масалалари. <http://nargis.uz/?p=2573>

<sup>10</sup> [https://www.internetlivestats.com/#google\\_vignette](https://www.internetlivestats.com/#google_vignette)

<sup>11</sup> <https://lex.uz/acts/-4396419>

ma'lumotlar haqida umumiy qoidalarnigina belgilab beradi. Jumladan, davlat shaxsga doir ma'lumotlarning himoya qilinishini kafolatlaydi, deyilgan. Ammo bu holatda davlat foydalanuvchi o'z xohishi bilan ma'lumotlarini biror-bir serverga joylashtirganidan so'ng ushbu server tomonidan foydalanuvchi ma'lumotlari qonuniy ravishda ishlatilishini ta'minlash mas'uliyatinigina zimmasiga oladi. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlarga odamlar qanday ma'lumotlar joylashi va uning xavfsizligi masalasi foydalanuvchilarning o'ziga bog'liq bo'lmoqda. Huquqiy jihatdan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ijtimoiy tarmoqlar, ularning egalari va foydalanuvchilarining huquqiy maqomi belgilab qo'yilmagan. Kibermakonni tartibga solish masalalari faqat O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonunlaridagina ko'rib chiqilgan. Ammo ushbu qonun hujjatlarida aynan ijtimoiy tarmoq tushunchalari va shu tizimlarda ma'lumotlar xavfsizligi masalalari yoritib berilmagan. Ijtimoiy tarmoqlarga nisbatan ko'p hollarda veb-saytlar yoki axborot resurslari haqidagi qoidalar qo'llanadi. Xususan bu qonunlarda ko'rsatilgan bandlar qayta tahrirlanib unda shaxsning o'z axborot xavfsizligiga doir bandlarni kiritish lozim.

Xulosa qilib, quyidagi takliflarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq deb bildik: dastlab qonunchilikdagi mexanizmlarni kuchaytirish lozim. Xususan, har bir shaxs o'zining ijtimoiy media maxfiyligi uchun o'zi javobgar sifatida belgilanib, istisino holatlarda jinoyatchilar tomonidan shaxsning ma'lumotlaridan qo'pol ravishda hamda sha'nini toptovchi kontentlar tayyorlashda foydalanilsa jarima miqdorini yuqori belgilagan holda jinoyatchini javobgarlikka tortish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Adambayev.U.X. Ancient myths and legends. “International scientific research conference”. BELARUS,MINSK:,2022.-P.4 .
2. //https://scholar.google.com/citations?view\_op=view\_citation&hl=ru&user=NBoo4eQAAAAAJ&citation\_for\_view=NBoo4eQAAAAAJ:qxL8FJ1GzNcC
3. Демидова-Петрова Е.В. ВикторовнаСоциальные сети и их влияние на преступность несовершеннолетних в современной России. DOI 10.24412/2227-7315-2022-4-116-125 УДК 343.97
4. Н.Қосимова. Медиаэкология: ахборий мухитнинг софлиги масалалари. <http://nargis.uz/?p=2573>
5. [https://www.internetlivestats.com/#google\\_vignette](https://www.internetlivestats.com/#google_vignette)
6. <https://lex.uz/acts/-4396419>

